XALQ DEPUTATLARI UYCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 6-sentabr VI-74-100-6-86-K/24 Uychi tumani

Uychi tumanidagi ayrim ko‘chalarning nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

“Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasiga, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga asosan, Xalq deputatlari Uychi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligining tumandagi ayrim ko‘chalarning nomini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (Rahmatov), Namangan viloyat kadastrlar palatasi Uychi tuman filiali (Akbaraliyev), tuman qurilish bo‘limi (Saidaliyev) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni, shuningdek yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Eshanov) nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari (ro‘yxat bo‘yicha) bilan birgalikda 1 oy muddatda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni peshlavxalarini o‘zgartirish ishlarini amalga oshirsin.

6. Mazkur qaror Uychinoma gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Jo‘rayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  MUSAYEV SHUXRAT MIRSODIQOVICH

Xalq deputatlari Uychi tumani
Kengashining
2024-yil 6-sentabrdagi
VI-74-100-6-86-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Uychi tumanida geografik ob’yektlarni nomlarini o‘zgartirish TAKLIFI

T/r	Geografik ob’yektni joylashgan o‘rni (mahalla)	Geografik ob’yekt turi	Geografik ob’yektni amaldagi nomi	Geografik ob’yektga tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar
1	Pastguzar	ko‘cha	Bobur shoh	Ozod diyor
2	Xo‘jaobod	ko‘cha	Gulirayxon	Yangi zamon
3	Gulzor	ko‘cha	Mustaqillik	Ishtiyoq
4	Istiqlol	ko‘cha	O‘nxayat	Buyuk el
5	Xo‘jaobod	ko‘cha	Yangi yo‘l	Hikmat
6	Ittifoq	ko‘cha	Bodomzor	Barqaror
7	Gumbaz	ko‘cha	Buloqboshi	Saylgoh
8	Qashqar	ko‘cha	Abdulla Qaxxor	Kavsar
9	Yorkatay	ko‘cha	Ziyoli	Inoqlik
10	G‘ayrat	ko‘cha	Ahillik	Buyuk vatan
11	Soku	ko‘cha	Shabnam	Ijodkor
12	Shaftoli	ko‘cha	Tabassum	Shifonur
13	Beruniy	ko‘cha	Diyonat	Hamjihat
14	Yorkatay	ko‘cha	Majnuntol	Sohibqiron
15	Yuksalish	ko‘cha	Hilol	Dilkash
16	Qashqar	ko‘cha	Serquyosh	Qadrdon
17	Islomobod	ko‘cha	Elparvar	Nurli-hayot
18	Quvurboshi	ko‘cha	Musaffo	Obod maskan
19	Ezgulik	ko‘cha	Sokinlik	Tabarruk
20	Quvurboshi	ko‘cha	Jannatmakon	Jannat yurt